

MAQSUD SHAYXZODANING "TOSHKENTNOMA" DOSTONI HAQIDA

Nizomova Kamola Vohid qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18080588>

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoir Maqsud Shayxzodaning "Toshkentnoma" dostoni tahlil qilingan. Doston avtobiografik xususiyat kasb etganligi, mubolag'a va go'zal tashbehlar asar badiiyatini oshirganligi misollar orqali ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: "Toshkentnoma", doston, avtobiografik, lirik syujet.

Maqsud Shayxzoda shoir sifatida "Loyiq soqchi" (1932). "O'n she'r" (1932). "Undoshlarim" (1933). "Uchinchi kitob" (1934), "Jumhuriyat" (1935), "O'n ikki", "Yangi devon" (1937), "Kurash nechun" (1942), "Ko'ngil deydiki..." (1943), "O'n besh yilning daftari" (1947), "Yurt she'rlari" (1948), "Olqishlarim" (1949), "Yillar va yo'llar" (1961), "She'rlar" (1964) va boshqa she'riy to'plamlarini yozdi. She'riy to'plamlar bilan bir qatorda u 1957-yilda "Toshkentnoma" she'riy dostonini tugatdi va bu lirik doston 1958-yilda "O'zSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti" tomonidan chop etildi. "Toshkentnoma" dostoni hasbi hol yo'nalishida bitilganligi, dostonlarga xos qofiyalanish tizimiga egaligi bilan ahamiyatli. Ma'lumki, Maqsud Shayxzoda asli Ozarbijonda Ganja viloyatida 1908-yil 25-oktabrda tavallud topganlar, ammo u 1927-yilda aksilinqilobiy tashkilot a'zosi sifatida hibsga olinib, 1928-yil fevralda Toshkentga surgun qilingan. Umrining keyingi davri Toshkent bilan uzviy bog'liq. Toshkent shahri va xalqining bag'rikengligi ijodkorni maftun ayladi, unga ilhom berdi:

Toshkentni sevmolik yurakning ishi,
Shu uchun shartmikan bunda tug'ilmoq
Shartmi, bir romanga ishqiboz kishi
O'zi u romanga qaxramon bo'lmoq!
Umrin bino bo'lib Ozarbijonda,
Kechdi bolaligim u gul makonda.
Nizomiy vatani, Ganja o'lkasi

Shoirning 30—40-yillardagi she'riyatiga ham, keyingi ijodiga ham xos muhim xususiyatlardan biri syujetlilikdir. Shayxzoda lirik syujet yaratishga moyil shoir sifatida xalq afsonalari va tarixiy o'tmish sahifalariga, shuningdek, zamondoshlari hayotiga murojaat etib, o'z she'rlariga balladaga xos poetik belgilar va turli poetik tafsillarni olib kirgan, so'zning she'riy qurilmadagi mavqeini oshirish choralari ko'rgan. Shu bilan birga Shayxzoda o'z davri uchun yangi badiiy imkoniyatlarini kashf etib, o'zbek she'riyatiga yangi vazn va shakl ko'rinishlarini olib kirgan. Shoir ijodiga xos bu tamoyil uning, ayniqsa, "Toshkentnoma" lirik dostonida yorqin ifodasini topgan.

Bir vaqtlar men senga shahrimni maqtab
Qilarkan ta'rifi, sen bir oz to'xtab,
"Shunchalar bormikan?" deb gumon qilding,
"Ko'rganda aytamiz!" deb imo qilding.
Va aytding-darvoqe ko'rgandan keyin:
"Maqtoving oz ekan, soz ekan uying!"

SHoir bu misralarda, avvalo, hayot hamda realizm va uning chuqurlashuvi bilan ham bog'liqlikni maqtovini keltirgan. Uning ta'rifi hamkorining Toshkentni ko'rishga bo'lgan ishtiyoqini, undagi his tuyg'ularni kuchayishiga, intellektual o'sishiga, ijodiy kuchlarning

ravnaq topishiga, o'z huquqlarini faol himoya qilishi, o'z qadru qimmatini bilishi, jamiyatda markaziy mavqega ko'tarilishi va fikrlarining teranlashuviga olib keldi.

Maqsud Shayxzodaning psixoanalizi negizida insoniylik, axloq, falsafa, inson ongi takomili turadi. SHoir "Toshkentnoma" dostonini tahlil qilishda soxtalik, loqaydlik, riyokorlik, mahalliychilik, og'aynigarchilik, egoizm, amalparastlik, milliy ong qoloqligi, siyosatdan qochishga harakat qilgan va psixologizmning esdalik, o'y, xayol, qayta baholash, ichki monolog, portret, qayta ifoda etish va boshqa usullaridan mohirona foydalana olgan:

Anqovrok ko'rinsa shahar hokimi,
El sha'nini saqlagan erkaklar turkumi
Muxrini qo'lidan tortib haydashdi,
(Ko'pdir fuqaroyu bek sarguzashti!)

Maqsud Shayxzoda "Toshkentnoma" orqali Toshkent shahrining milliy madaniyatimizdagi o'rnini yuksaltiradi. Ushbu doston shunchaki bir shahar tarixi emas, balki Toshkentga bo'lgan mehr va hurmatni ifoda etadi. Ayniqsa, tarixiy sinovlarga bardosh bergan xalq obrazlari orqali shoir vatanparvarlik g'oyalarini ilgari suradi.

... Bola desa xotirlanar bolajonlilar,
Bolalarga g'amxo'rlilar, mehrbonlilar.
Men toshkentlik temirchiga aytaman: — Rahmat!
O'n to'rt bola asrab olgan Shoahmad aka...
A, mehribon Baxri opa, sen chekib zahmat,
O'z bolangday mehr qo'yding o'n to'rt o'ksikga.
O'n to'rt bola, o'n to'rt millat, turli o'n to'rt ot,
Shohmadning farzandi deb tanilgan avlod.
Bu gulzorlar, bu hovuzlar, bog'lar-bog'chalar
Allanelar eslatadi u keng ko'chalar...

Tarix sahifalarida oltin harflar bilan bitilgan, Toshkentning xotira maydonida nomlari sharaflanib haykallari qad roslagan haqiqiy insonparvarlik namoyondalari bu Shoahmad aka va Bahri opalar. Ular 14 bolani asrab olib, haqiqiy farzand sifatida ko'rib, o'z mehr-muhabbatlarida tarbiya qilganlari uchun Allohning behad savoblariga sababchi bo'lganlar. Xalqimizning ko'ngli ochiqligi, mehmondo'stligi sabab Maqsud Shayxzoda uni "Salomobod" deya ataydi. Bu o'zbek xalqiga berilgan maqtov, oltinga teng ta'rif desak bo'ladi.

Dostonda xalq qo'shiqlariga hamohang ohanglarga ham duch kelamiz:

— Nima ko'p Toshkentning?
— Suvi, soyi, soyasi...
Toshkentga ixlosmandning
Tugamas hikoyasi!
— Nimalar ko'p Toshkentda?
— Oshlar, ishlar, odamlar.
Sozanda-yu pazanda,
Ishchilar, ishboshilar.
— Toshkentda nima ko'rding?
— Mevalarning asli,
Doim quyosh fasli,
Quyosh bunda izzatda.

"Suvi, soyi, soyasi" so'zlarida alleteratsiya, keyingi misralarda esa badiiy takrorlarni ko'rishimiz mumkin. Doston guzilishiga e'tibor beradigan bo'lsak, u an'anaviy boshdan oyoq bir xil uslub, vaznda (Men o'zbek she'rining to'qqiz vaznida, Sening dotoningni ohangga soldim) yozilgan emas, balki shoir ko'proq erkin bo'lishga harakat qiladi.

Maqsud Shayxzoda qator misralarda juda ko'p tarixiy shaxs, zamondosh shoirlar nomlarini keltiradi. Masalan, "Hazrat Navoiyning o'pib qo'lini, O'zbek vodiysiga otimni surdim", "Bu yerda tug'ilgan G'afur va Oybek, Meni ardoqlashdi quchib og'adek", "Nizomiy vatani, Ganja o'lkasi", "Asl shoir edi Hamid, She'ri — kurash, baxt va umid!", "Xiyobonning chekkasida ko'rdim Hamid Olimjonni", "O'qir edim Xondamirni", "Isodan, Iskandardan, Kaykovuslardan ilgariroq bu yerda bozorlar joylashgan" kabi.

O'zbek vodisida otimni surdim.

Ijod karvonining uzoq yo'lini

Aziz yo'ldoshlar-la o'toldim, yurdim. Yo'k, men

Takdirimdan emasman xafa.

Yuqoridagi misralar orqali Maqsud Shayxzoda umrining so'nggi 30yilini azim Toshkent bilan bog'laganiga xafa emasligini aytadi. Bu fikrlar dostonning bir necha o'rinlarida keltiriladi. Lirik qahramon "xafa emasman" deya bot-bot qaytarishdan tolmaydigandek go'yo.

Kuyladim o'n sakkiz bobda — qo'shiqda,

Va «Toshkentnoma»ga qo'ydim so'ng nuqta.

Doston tuzilishiga oid fikrlarni, uning 18 bobga bo'linganligini Maqsud Shayxzoda xotimada aytib o'tadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Maqsud Shayxzodaning "Toshkentnoma" lirik dostoni avtobiografik yo'nalishda, xalqona ohangda bitilganligi bilan ajralib turadi, uning tuzilishi, misralarning qofiyalanishi, o'z davri adabiyotiga xos ruh borligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Ijodkor o'tgan buyuklar yodini xotirlashga, tarix sahifalarini varaqlashga harakat qiladi va turon zaminda tug'ilib o'sgan insonlarning o'z xalqi uchun jasorat ko'rsatib, kelajak avlodga o'rnak bo'lishganini eslaydi. Boshqa xalq vakilining azim Toshkentimiz haqida juda chiroyli madhiyadek bitilgan dostonni o'qish har bir o'zbek o'quvchisiga o'zgacha faxr bag'ishlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. kh-davron.uz Maqsud Shayxzoda. Toshkentnoma. Doston.
2. ziyo.uz Maqsud Shayxzoda-biografiya
3. arboblal.uz. Shayxzoda Maqsud masumbekovich